

## ISHLAB CHIQRISH JOYLARIDA JAROHATLANISH SABABLARI, KICHIK HAJMDAGI ISSIQXONA ISHCHILARI MEHNAT SHAROITINI HAVFLI (SHIKASTLOVCHI VA ZARARLI) OMILLARI DINAMIKASI VA EMMISIYASI QONUNIYATLARINI NAZARIY TAHLILI.

*O'rinova Sadoqatoy Kobuljonovna.*

*Andijon mashinasozlik instituti*

*Transport va logistika fakulteti*

*“Mehnat muhofazasi” kafedrası doktoranti*

*sadoqaturinova1983@gmail.com*

**+998903830280**

**Abstrakt:** Maqolada ish joylarida sodir bo'ladigan jarohatlanish sabablari va uni iqtisodiy tahlil qilish, kasbiy kasalliklarga chalinish darajalari, baxtsiz xodisalarni vujudga kelish sabablarini o'rganish maqsad qilib olingan bo'lib, ruxsat etilgan me'yor doirasidagi ma'lumotlarni yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:**Jarohatlar, kasb kasalliklari, ishchi-hodimlar, tashkiliy sabablar, ish joylari, baxtsiz hodisalar, mehnat xavfsizligi, kimyoviy moddalar, omillar, iqtisodiy talablar, me'yorlar.

**Usullar.**Kasb kasalliklarning etiologiyasi (kelib chiqish) bo'yicha fizikaviy omillar, chang, kimyoviy moddalar va biologik omillarning odam organizmga ta'sir etishidir. Monografitk usulda aniq ish joyi, uchastka, uskuna, mashina, mexanizm yoki texnologik jarayonda yuzaga kelgan xavfli yoki zararli ishlab chiqarish omillari tahlil qilinadi.

**Natija.**Ish joylarining uskuna, moslama va yordamchi asboblar bilan yetarli ta'minlanmaganligi yuk ko'tarish vositalari, bog'lab qo'yuvchi moslamaning yo'qligi, yo'l-yo'riqning o'z vaqtida berilmaganligi va mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish ishlarining sust olib borilganligi, mehnat xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarning yo'qligi, ishchilarning o'z vaqtida maxsus kiyimlar bilan ta'minlanmaganligi, dam olish va mehnat qilish tartibining buzilishi tufayli vujudga keluvchi omillarni havfini kamaytirishda texnologik yondashuv .

**Xulosa.**Bu usuldan foydalanib, baxtsiz hodisa sodir bo'lgandagi barcha holatlarni (ish joyidagi mikroiklim, shovqin, titrash va boshq.) chuqur o'rganildi. Shuningdek, usul yangidan loyihalananayotgan yoki ta'mirlananayotgan issiqxonalarda, korxonalarda mehnat xavfsizligiga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

**Kirish.** Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha korxonalarining foyda ko'rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko'rsatishini talab etadi. Davlatimizning

iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida muhim omillar bo'lib, ishlab chiqarish yuz beradigai jarohatlanishlar va boshqa shu kabi zararlanishlarni ortishni kamaytirishni ta'minlash bilan birga mamlakatda faoliyat yuritayotgan har bir issiqhona, korxonona, firma, kompaniyalarning xo'jalik subyektlari sifatida rivojlantirishni taqozo etadi. Ishlab chiqarishda jarohatlanish (grekcha Traum a-yara) deb odam organizmga ishlab chiqarish omillarining xavfli ta'siri natijasida, ya'ni baxtsiz hodisa tufayli organizm to'qimalarning jarohatlanishi va ishlash faoliyatini buzilishiga aytiladi[1]. Ular beixtiyor (lat yeyish, kesib olish, sinish, chiqish va boshq.), kim yoviy (kislota va ishqorlar ta'sirida kuyish), termik (odam organizmga yuqori yoki past harorat ta'sir etib, kuyish yoki sovuq urishi), elektrdan kuyish, tok urish va boshqa psixologik (qattiq hayajonlanish, ko'rquv va boshq.). Jarohatlanish natijasida odam ish qobiliyatini vaqtinchalik yoki doimiy yo'qotishi mumkin. Bunda ishchi umumiy ish qobiliyatini yoki kasbiy ish qobiliyatini yoxud ikkalasini ham yo'qotishi mumkin. Ishlab chiqarishdagi kasallanishlar kasbiy va umumiy kasallanishlar noqulay ish sharoitlaridan kelib chiqishi mumkin[2]. Kasbiy kasalliklar zararli ishlab chiqarishomillari ta'siridan kelib chiqadi (kasbiy zararlar). Ular vaqtinchalik, uzoq vaqtgacha yoki umuman ish qobiliyatini yo'qotishga (nogironlikka) olib kelishi mumkin. Kasb kasalliklarining ayrim hollari kasbiy zaharlanish deb hisoblanadi (o'tkir yoki surunkali).



### **1-rasm. Ishlab chiqarish joylarida jarohatlanish va uning tahliliy jarayoni.**

**Eksperimental usullar.** Kasb kasalliklarining etiologiyasi (kelib chiqish) bo'yicha fizikaviy omillar, chang, kimyoviy moddalar va biologik omillarning odam organizmga ta'sir etishidir. Fizikaviy omillar natijasida sodir bo'ladigan kasbiy kasalliklarga titrash kasalligi kiradi va u odam organizmiga titrashni ta'sir qilishidan kelib chiqadi. Odam organizmga og'ir jismoniy mehnat, odam tanasining ish vaqtida egilib turishi doimo ta'sir ko'rsatadi. Sovuqning ta'siri natijasida radikulitlar paydo bo'ladi. Odam organizmga changning ta'sir qilishi natijasida sodir bo'ladigan kasb kasalliklariga surunkali kasbiy o'pka fibrozi, pnevmokonioz va changlardan uzoq vaqt nafas olish natijasida kelib chiqadigan kasalliklar kiradi[3].



Kimyoviy moddalarning ta'siri natijasida kelib chiqadigan kasbiy kasalliklarga surunkali va o'tkir zaharlanish, o'tkir va surunkali teri kasalliklari (derm atitlar va ekzem alar), konyuktivitlar va boshqalar kiradi[4]. Qishloq xo'jaligi xodimlarning organizmga ko'pincha turli xil kimyoviy moddalar pestisidlar, kamroq hollarda mineral o'g'itlar, uglerod oksidi va boshqa kimyoviy moddalar ta'sir qiladi. Biologik omillar ta'siri natijasida sodir bo'ladigan kasbiy kasalliklariga, yuqumli va parazitar kasalliklar, kasal hayvonlardan odamga o'tadigan (brusellyoz, sap, sibir yazvasi, ornitoz, toksoplazm oz va boshqalar) va allergik kasalliklar kiradi. Qishloq xo'jaligida allergik kasalliklardan polinozlar, bronxial astma va boshqalar uchraydi. noqulay ish sharoitlari havo haroratining keskin o'zgarishi yelvizaklar, namlik neft mahsulotlari bilan bog'liq bo'lgan chang, kuchli jismoniy zo'riqish, ovqatlanish tartibining buzilishi va bemorlar bilan aloqada bo'lish vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotishga olib kelishi mumkin[5]. Shuningdek, issiqxonalarda dalalarda ishlaydiganlar ichida keng tarqalgan kasalliklardan shamollash (21% ), suyak-muskul kasalligi (8,2% ) va yurak-tomir tizimi (7,8% ), ovqat hazm qilish a'zolari (6,8% ) va boshqalar.

Umumiy kasallik bilan og'rish kasbiy kasalliklarga nisbatan ancha ko'p. Ish vaqtida kasallanish tufayli yo'qatiladigan ish vaqti, jarohatlanishlar sababli yo'qotiladiganlariga qaraganda 30 barobar ko'pdir[6]. Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasallanishlarning sabablari ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasallanishlarning barcha sabablarini shartli ravishda quyidagilarga birlashtirish mumkin: texnik, tashkiliy, sanitariya-gigienik, psixofiziologik, iqtisodiy va xodimning aybi bilan yuz beradigan kasalliklar[7].Texnik sabablar: uskuna va moslamani, to'sih qurilm alam ing, tormoz tizim ining ishlam asligi yoki nosozligi, gidravlik tizim ining zich em asligi tufayli kelib chiqadi.



**2-rasm. O'simliklarni o'g'itlash jarayonidagi zararlanishlar**



**3-rasm. Issiqxonadagi ishchi ayollar uchun maqbul iqlim.**

**Natija.** Issiqxona va ish joylarining uskuna, moslama va yordamchi asboblar bilan yetarli ta'minlanmaganligi yuk ko'tarish vositalari, bog'lab qo'yuvchi moslamaning yo'qligi, yo'l-yo'riqning o'z vaqtida berilmaganligi va mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish ishlarining sust olib borilganligi, mehnat xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarining yo'qligi, ishchilarning o'z vaqtida maxsus kiyimlar bilan ta'minlanmaganligi, dam olish va mehnat qilish tartibining buzilishi tufayli kelib chiqadi. Sanitariya-gigiena sabablariga: ish joyidagi noqulay mikroiklim (harorat, havoning namligi va harakat tezligi param etrlarining ish sharoitlariga muvofiq kelmasligi), yoritilganlik darajasining QMvaQ talablariga javob bermasligi, ish joylarining betartibli va iflosligi, maishiy xonalarning (yechinish, yuvinish-cho'milish xonalari, hojatxona va boshq.) yo'qligi natijasida kelib chiqadi[8]. Ruhiiy holat sabablarga: ishning ham isha bir xilligi, qattiq jismoniy mehnat tufayli zo'riqishi, kishi organizmiga ish joyining ruhiy anatomik fiziologik jihatdan mos kelmasligi, charchashi, jamoatchilik orasidagi nosog'lom muhit tufayli kelib chiqadi. Iqtisodiy sabablar: mehnat muhofazasi masalalariga sovuqqonlik bilan qarash, shuningdek, oylik maoshi o'z vaqtida bermaslik va ishchilarning yuqori ish unumiga erishishga intilmasligi, ish sharoitlarini yaxshilash tadbirlariga yetarli mablag' ajratilmasligi tufayli kelib chiqadi. Ishchining aybi bilan sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar qatoriga: ishchining intizomsizligi, ishga betob yoki mast holda kelishi kiradi[9]. Jarohatlanishlar va kasallanishini tahlil qilish usullari ishlab chiqarishdagi jarohatlarni tahlil qilishdan maqsad, xavfli yoki zararli ishlab chiqarish omillarini va baxtsiz hodisalarning vujudga kelishini aniqlash hamda ularni oldini olishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligida jarohatlanishni o'rganish va tahlil qilishda statistik, topografik, monografik, ergonomik, iqtisodiy va boshqa usullar qo'llaniladi. Bu usullarning har biri mehnat sharoitini yaxshilashga va xavfsizlikni ta'minlashga doir tor doiradagi masalalarni ko'rib chiqish va hal qilishga yo'naltirilgan. Jarohatlanishni o'rganishning statistik usuli eng ko'p tarqalgan[10]. Bu usul baxtsiz hodisani tekshirish paytida N-l shaklda dalolatnomadagi baxtsiz hodisalarni tavsiflovchi ma'lum otlarga asoslanadi[11]. Shu usulga ko'ra barcha baxtsiz hodisalar alohida belgilari: jarohatlanganlarning yoshi, kasbi, jinsi, bajaradigan ishiga qarab guruhlarga ajratiladi. Bu usul kasblar, yosh va boshqa ko'rsatkichlar qanchalik xavfli ekanligini aniqlashga, shuningdek, jarohatlanishning oldini olishga doir chora-tadbirlar ko'rishga imkon beradi. Ushbu usul orqali jarohatlanishning quyidagi asosiy nisbiy ko'rsatkichlari: tez-tez takrorlanish koeffitsenti va og'irlik koeffitsenlari ish vaqtining yo'qotilishi va o'lim soni ko'rsatuvchi koeffitsenlari, orqali jarohatlanshi darajasini aniqlash mumkin. Tahlilga kirishishdan oldin boshlang'ich xujjatlarni tekshirish va tayyorlash lozim[12]. Dastlab ishlab chiqarish to'liq hisobga olinganligi aniqlanadi. Buning uchun baxtsiz hodisalarni tekshirish



tavsifnomalari buxgalteriyadagi mehnatga layoqatsizlik varaqalari bilan taqqoslanadi. Bu varaqalarda ko'rsatilgan diagnostika bilan tanishish korxonada jarohatlanishlarni yashirish hollari bo'lmaganligini aniqlashga imkon beradi[13]. Shundan keyin tavsifnomalarda bayon qilingan hodisalarning to'g'riligiga ishonch hosil qilinadi, shubha tug'dirgan yozuvlar baxtsiz hodisa ro'y bergan joyda tekshirib ko'riladi. Shuni nazarda tutish kerakki, ayrim punktlarni noto'g'ri yoki noaniq to'ldirish, notog'ri xulosalar chiqarishga va buning oqibatida baxtsiz hodisa sabablarini yo'qotishga olib keladi. Topografik usulda baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joy aniqlanadi. Buning uchun xo'jalikniig (bo'lim, fermer xo'jaligi, brigada va boshq.) bosh rejasida baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joy shartli belgi bilan belgilanadi. Bunda baxtsiz hodisalar tez takrorlanadigan joylar yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa ularning sodir bo'lish sabablarini yo'qotishga doir shoshilinch choralar ko'rishga imkon berad[14]i. Monografik usulda aniq ish joyi, uchastka, uskuna, mashina, mexanizm yoki texnologik jarayonda yuzaga kelgan xavfli yoki zararli ishlab chiqarish omillari tahlil qilinadi.

### **Muhokamalar.**

Issiqxona ishchilarining kompleks davriy tibbiy ko'riklarini o'tkazishda, guruhlarini faol aniqlashga qiziqish, kasbiy kasallik xavfi bor yoki yo'q, ish beruvchi va ishchi qismilarga e'tibor qaratildi N. A. Izmerov, I. M. Buxtiyarov, L. M. Prokopenko 2014; V. A. Novikov, V. A. Spirin, N. Va. Mixaylova, V. M. Taranova 2012; I. A. Buxtiyarov 2016 kabi olimlar o'z hissasini qo'shgan bo'lib so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Sanitariya-Epidemiologiya Nazorati bosh boshqarmasi markazi mutaxassislar tomonidan issiqxonachilik bilan shug'ullanadigan ho'jaliklarga kam e'tibor berilmoqda. Andijon viloyati issiqxonalaridagi turli xil etiologiyalarning somatik patologiyasi, davom etayotgan boshqaruv va profilaktik chora-tadbirlar, doimiy ro'yxatga olib borilishi kerak. Andijon viloyatidagi asosiy kasblari issiqxona ishchi-xodimlari bo'lganligi tufayli va ularning organizmida vujudga kelgan kasallanishlar, birinchi navbatda, ishlab chiqarish muhiti omillarining ta'siriga e'tibor qaratish zarur.

### **Xulosa.**

Bu usuldan foydalanib, baxtsiz hodisa sodir bo'lgandagi barcha holatlarni (ish joyidagi mikroiklim, shovqin, titrash va boshq.) chuqur o'rganildi. Shuningdek, usul yangidan loyihalananayotgan yoki ta'mirlananayotgan issiqxonalarda, korxonalarda mehnat xavfsizligiga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Ergonomik usulda mehnat turlarining o'ziga xos tomonlari ergonomik omillarning (mashina, mexanizm boshqarish organlarida zo'riqish, ishchining Ish bajarayotgandagi holati va boshq.) mehnat xavfsizligiga ta'sir darajasi baholanadi[15]. Iqtisodiy usulda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishdan keltirilgan iqtisodiy zarar, shuningdek mehnat xavfsizligi chora-tadbirlariga sarflangan

mablag'larning to'g'ri taqsimlanganligi baxtsiz hodisalarning oldini olishga ketgan xarajatlarning samaradorligi aniqlanadi. Jarohatlanish darajasi korxonaning iqtisodiga ta'sirini baholashda jarohatlanish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, sifatsiz mahsulotlar va mehnat unumdorligining pasayishidan ko'rilgan zararlar va boshqa xarajatlar e'tiborga olinadi. Lekin bu usul baxtsiz hodisaning sabablarini aniqlashga imkon bermaydi, shuning uchun bu qo'shimcha usul hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 246-son 2017-yil 27-aprel 3-bob."Zararli va xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganligi uchun hodimlarga imtiyoz va kafolatlar to'g'ri berilganligi va haqiqiy mehnat sharoitlarini baholashda davlat ekspertizasini o'tkazish tartibi" qarori.
2. O.D.Rahimov, I.X Siddiqov, M.O Murodov. Hayot faoliyat.Ekologiya. Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari uchun darslik. T.: "Aloqachi",2017-332
3. Ф.Н.Сапежинский, Е.В.Бородина система «Человек - техника - среда» в эргономике и на железнодорожном транспорте. 127994, Москва, ул. Образцова, д.9, стр.9. Типография МИИТа
4. T.Haydarov.Ergonomik biomexanika / o'quv qollanma. /Toshkent2021.
5. Yuldashev O.R., Sapaev Sh.M., va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi Ainaly mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Kenavax, 2010.
6. Qudratov A., Yuldoshev O.R., Hayot faoliyati xavfsizligi.Darslik.-T.: Aloqachi, 2005.
7. Yormatov G., Mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma.-Toshkent: "blexhar", 2008.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligida islohotlarni davom ettirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli Qarori. T., 2015 yil 29 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi Nizom.
11. S.K.O'rinova, M.I.Turg'unxonova. "Ishlab chiqarish binolarida evakuatsiya eshiklarni takomillashtirish." Namangan muhandislik-texnologiya instituti Ilmiy-texnik jurnali Maxsus son 1.Tom 7.2022y.
12. S.Sulaymonov. N.Qobulova. S.O'rinova. "Issiqxona havosini pestisidlardan va

nisbiy namlikdan tozalash.” So‘ngi ilmiy tadqiqodlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali.2022y.O‘zbekiston.

13. Уринова С., Абдурахманов А. “Мониторинг безопасности рабочих в теплицах” “Дальневосточная весна-2021”. Материал 19-й Международной научно-практической конференции по проблемам и безопасности Россия Федератсия Хабаровского края (г.Комсомолск-на-Амуре, Россия, 30-31 марта 2021г.)

14. Вакiev А., Камalov М., Sagdullaev N. “Возделывания ранних овощей в теплицах и под пленкой. Tashkent, Uzbekistan, 1973, 58 s.

15. Вакuras N.S. «Выращивание рассады и овощей в теплицах» Tashkent, Mexnat, 1989, 138 s.

